<i>Safarova M. A.</i>	
Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	600
<i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>	
Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....	602
<i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>	
Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyali bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
<i>Abdullayeva Charos Farkhodovna</i>	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils.....	670
<i>Ataullayev Fazliddin</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna</i>	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari.....	686
<i>Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li</i>	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
<i>Omonova Nilufar Omon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi</i>	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
<i>Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna</i>	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi.....	702
<i>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</i>	
Tarbiya panin oqituv arqali oqivshiflardin kreativ qabiletin rawajlandiruv.....	706
<i>Reymova Gulaim</i>	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
<i>Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi</i>	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	714
<i>Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi</i>	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
<i>Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun hospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
<i>Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi</i>	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований.....	779
У. Ш. Салимов	

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYALARI



Sodiqova Shoista Akbarovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti professori



Lutfullayeva Iroda Abdurahob qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish texnologiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda milliy bayramlarning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanib, ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari asoslab beriladi. Maqolada kuzatish, suhbat va pedagogik tajriba-sinov usullari orqali milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyat bolalarda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy xulq-atvor hamda ma'naviy ongini shakllantirishda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi bolalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy texnologiyalar, xalq pedagogikasi, ijtimoiy xulq-atvor, milliy an'analar.

Abstract: This scientific article analyzes, from theoretical and practical perspectives, the technologies for the effective use of national values in the process of moral and spiritual education of senior preschool children. The study identifies the educational potential of national customs, traditions, samples of folk oral creativity, and national holidays, and substantiates the mechanisms for their integration into the preschool education process. Using observation, interviews, and pedagogical experimental methods, the article proves that educational activities based on national values play an important role in the formation of moral norms, social behavior, and spiritual awareness in children.

Key words: preschool education, senior preschool children, moral and spiritual education, national values, educational technologies, folk pedagogy, social behavior, national traditions.



Аннотация: В данной научной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются технологии эффективного использования национальных ценностей в процессе духовно-нравственного воспитания детей старшего дошкольного возраста. В ходе исследования выявляются воспитательные возможности национальных обычаев, традиций, образцов устного народного творчества и национальных праздников, а также обосновываются механизмы их интеграции в образовательный процесс дошкольного образования. С использованием методов наблюдения, беседы и педагогического эксперимента доказывается, что воспитательная деятельность, основанная на национальных ценностях, является важным фактором формирования у детей нравственных норм, социального поведения и духовного сознания.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, воспитательные технологии, народная педагогика, социальное поведение, национальные традиции.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari ma'naviy manbalar hamda hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari asosida, tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan amaliy va nazariy muloqoti jarayonida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ushbu jarayonning mohiyatini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi¹. Ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy me'yorlar, milliy o'zlik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy xulq-atvorni shakllantirishda milliy qadriyatlarga tayanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki aynan shu yosh davrida bolaning dunyoqarashi, axloqiy tasavvurlari hamda xulqiy odatlari barqaror asosda shakllana boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga doir davlat siyosatida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani yo'lga qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda ta'lim jarayonida bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularni milliy an'ana va urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan². Mazkur normativ-huquqiy hujjat maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyat mazmunini boyitish uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda milliy qadriyatlar shaxs tarbiyasining muhim manbalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, A. Avloniy axloqiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"^[1]. Ushbu fikr maktabgacha ta'lim bosqichidayoq tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi kelajak avlod kamoloti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, xalq pedagogikasida jamlangan milliy qadriyatlar – ertaklar, maqollar, urf-odatlar, marosimlar va milliy bayramlar – bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Bu borada K. Hoshimov milliy tarbiyaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya shaxsda ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning eng samarali yo'lidir"^[2].

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarini ilmiy asoslash hamda ularni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo Sharq mutafakkirlari merosida ham, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham markaziy o'rin egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy shaxs kamolotida axloq va tarbiyaning yetakchi o'ri borligini ta'kidlab, tarbiyani jamiyat barqarorligining asosi sifatida baholagan³. Alisher Navoiy asarlarida esa axloqiy yetuklik, insonparvarlik va milliy qadriyatlar shaxs tarbiyasining muhim omili sifatida talqin etiladi⁴.

O'zbek pedagogikasida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya masalalari XX asr boshlaridan boshlab ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlarida tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'rib, bolalik davrida berilgan axloqiy tarbiya shaxsning butun hayotiga kuchli va barqaror ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan⁵.

1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy axamiyati Jur'at Sodirovich Saidov. <http://www.ares.uz/1046-b>

2 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.

3 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.

4 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.

5 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Zamonaviy tadqiqotlarda milliy qadriyatlar tarbiyaviy jarayonning mazmuniy asosi sifatida e'tirof etiladi. K. Hoshimov va N. Saidahmedovlarning ilmiy izlanishlarida milliy an'ana, urf-odatlar hamda xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish bolalarda ijtimoiy moslashuv, axloqiy me'yorlar va milliy ongning shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan⁶. Mualliflar milliy tarbiyani tashkil etishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Maktabgacha ta'lim sohasiga oid tadqiqotlarda katta yoshdagi bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalarning ahamiyati alohida qayd etiladi.

Jumladan, M. Qurbonova olib borgan tadqiqotlarda ertaklar, maqollar va milliy o'yinlar bolalarda mehr-oqibat, hurmat hamda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy dalillar bilan asoslangan⁷.

D. Yo'ldoshevaning ishlarida esa milliy bayram va marosimlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash bolalarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan⁸.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish masalasi yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Ko'plab tadqiqotlarda asosan nazariy yondashuv ustuvor bo'lib, amaliy mexanizmlar hamda texnologik modellarni ishlab chiqish yo'nalishi kengaytirishni talab etadi. Ushbu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, quyidagi metodlar qo'llanildi.

*Birinchi*dan, nazariy tahlil metodi mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish uchun qo'llanildi.

*Ikkinchi*dan, kuzatish metodi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va tarbiyaviy mashg'ulotlardagi faolligini aniqlashda foydalanildi.

*Uchinchi*dan, suhbat metodi tarbiyachilar va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar orqali milliy qadriyatlarining tarbiyaviy jarayondagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga xizmat qildi.

*To'rtinchi*dan, pedagogik tajriba-sinov metodi milliy qadriyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, ertaklar, milliy o'yinlar va an'anaviy tadbirlarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali ularning samaradorligini baholash maqsadida qo'llanildi.

Shuningdek, tahlil va taqqoslash metodi tajriba natijalarini umumlashtirish hamda ularni dastlabki holat bilan solishtirish asosida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchligini ta'minlash va ularning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining yuqori samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida milliy an'ana, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda milliy bayramlarga asoslangan mashg'ulotlar bolalarning axloqiy xulq-atvori va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Kuzatishlar natijasida tajriba guruhidagi bolalarda o'zaro hurmat, kattalarga ehtirom, tengdoshlariga nisbatan mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarining shakllanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekani qayd etildi.

Xususan, milliy ertaklar va maqollar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, axloqiy xatti-harakatlarni ongli ravishda anglash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu holat xalq pedagogikasining tarbiyaviy salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida milliy o'yinlar va marosimlardan foydalanish bolalarning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyatga asoslangan milliy o'yinlar bolalarda hamkorlik, mas'uliyat hamda o'zini tutish madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy jarayonda milliy qadriyatlarni tizimli va maqsadli qo'llash bolalarning faolligini oshirib, ularni tarbiyaviy faoliyatga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Suhbat va so'rovnoma natijalariga ko'ra, tajribada ishtirok etgan tarbiyachilar milliy qadriyatlarga asoslangan texnologi-

6 Hoshimov K., Saidahmedov N. Pedagogika tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2011.

7 Qurbonova M. Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018.

8 Yo'ldosheva D. Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikasi. – Toshkent, 2020.



yalar bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladilar. Ota-onalar esa bunday yondashuv natijasida bolalarda milliy urf-odatlariga hurmat va oilaviy qadriyatlarga e'tibor kuchayganini qayd etdilar. Bu holat tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlarni tasdiqlabgina qolmay, ularni amaliy jihatdan boyitadi. Agar avvalgi tadqiqotlarda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati asosan nazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida joriy etishning aniq mexanizmlari sinovdan o'tkazildi. Natijalar milliy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy texnologiyalar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda barqaror axloqiy fazilatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining pedagogik samaradorligini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy jarayonda milliy an'ana, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi hamda milliy bayramlarga tizimli va maqsadli yondashuv asosida murojaat qilish bolalarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va ma'naviy dunyosida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgani aniqlandi. Xususan, bolalarda kattalarga hurmat, tengdoshlariga mehr-oqibat, jamoada o'zini tutish madaniyati hamda milliy urf-odatlariga nisbatan qiziqishning ortgani kuzatildi. Bu holat milliy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy texnologiyalar maktabgacha yosh davrida yuqori tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanish nafaqat bolalarning shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayonni yanada samarali tashkil etishda ishonchli ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hoshimov K. Milliy tarbiya va pedagogik tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
6. Hoshimov K., Saidahmedov N. Pedagogika tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
7. Qurbonova M. Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018.
8. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – Toshkent, 2010.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
10. Boboyeva D. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish // Ilmiy to'plam. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – B. 103–105.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.